

TARJIMASHUNOSLIKDA LISONIY VA NOLISONIY MUAMMOLAR

Jahongirova Nilufarxon Alisherxon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi talabasi
Ilmiy Rahbar: **Zufarova Sevara Muratdjanovna**
Tarjimonlik fakulteti Roman-german tillari
Tarjimashunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimashunoslikda lisoniy va nolisoniy muammolar, ekvivalentlik va tarjima jarayonida yo'l qo'yiladigan xatolar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: lisoniy, nolisoniy, grammatik, tarjimashunoslik, sinonimlar va ekvivalentlik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются лингвистические и нелингвистические проблемы, эквивалентность и ошибки в процессе перевода.

Ключевые слова: лингвистические, нелингвистические, грамматика, переводоведение, синонимы и эквивалентность.

O'zbekistonda tarjima nazariyasini yaratish yo'lidagi urinishlar XX asrning 30-yillardan boshlangan. Tarjimashunoslik sohasi qiyin va ma'suliyatli sohalardan biri hisoblanadi. Tarjimada so'z ma'nolarini taxminiy tarjima qilishga yo'l qo'yilmaydi. So'z va uning ma'nolarini tarjimon yaxshi bilishi yoki uni lug'atdan topishi shart. Chunki aslidagi so'zga qisman to'g'ri keladigan ekvivalentni topish ko'pincha tarjimonga muammo bo'lishi mumkin.

Tarjimon faqat asliyat mazmunini berishigina emas, balki uning badiiy go'zalligini ham qayta yaratishni, asarning ta'sir kuchini ham saqlab qolishni va tarjimaning ham asliyatga mosini tanlab chiqishi va uni qo'llay olishni bilishi kerak.

Asliyatdagi so'zga qisman to'g'ri keladigan ekvivalentni topish ko'pincha tarjima qilishda muammo yaratadi. Bunday so'zlar odatda "polisemantik", ya'ni ko'p ma'noli so'zlar hisoblanadi. So'z ma'nosining qaysi biri qo'llanilganini aniqlash tarjimonning birinchi galdagi vazifasi hisoblanadi. Bunda tarjimonni adashishdan, noto'g'ri so'z tanlashdan saqlaydigan til hodisasi bu- kontekst hisoblanadi. Tilshunoslikda odatda kontekstning ikki turi mavjud bo'lib, bular lingvistik va ekstralingvistik turlardir. Lingvistik kontekst o'z navbatida ikki turga — keng va tor ma'nodagi kontekstlarga bo'linadi.¹

Tor ma'nodagi kontekst ibora va gap doirasida, keng ma'nodagi kontekst iboradan katta bo'lgan birlik hamda butun bir matnni o'z ichiga oladi. O'z ma'nosida qo'llangan so'zlar va ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarni tarjima qilishning o'ziga

¹ O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari/ O'quv qo'llanma, S.X.Muhammedova, M.D.Abdullayeva, Sh.Sh.Yuldasheva, Y.B.Eshmatova, -T.: "Excellent Polygraphy", 2020.

xos xususiyatlari mavjud. Kontekstda odatda so'zlar o'z ma'nosida qo'llanmaganda, ya'ni ko'chma ma'noda qo'llanganda tarjima muammosi paydo bo'ladi. Ba'zi hollarda so'z ma'nosini to'liq anglash uchun butun bir gapni tushunishimiz lozim bo'ladi. Ko'p ma'noli so'zlardan keragini tanlashda kontekstning ahamiyati katta. Masalan. Ingliz tilidagi "bus" so'zini olaylik. Bu so'z ot ma'nosida "avtobus yoki trolleybus" so'zining qisqargan shakli hisoblanadi. Biroq fe'l ma'nosida qo'llanilsa, Amerika va Kanadada "bolalarni bir hududdan ikkinchi hududga avtobusda tashimoq" ma'nolariga ega. Bundan tashqari bu so'z talabalar oshxonasidagi lavhalarda ishlatilib, "o'z-o'ziga xizmat qilish" ya'ni patnisni olib, uni ishlatib bo'lgandan keyin bo'shagan idishlar bilan joyiga olib borib qo'yimoqish ma'nolariga egadir.

Tarjimaning faqat til bilan bog'liq til doirasida hal qilinadigan grammatik, sintaktik, uslubiy, semantik, frazeologik, aksiologik va boshqa muammolaridir. S.Salomovning yozishicha "tarjima shubhasiz lisoniy faoliyatga asoslanadi, lekin tafovutlari bartaraf qilish, tarjima jarayonida bosib o'tiladigan bir bosqichigina xolos, tarjima ikki grammatika, grammatik sistema tarixan tarkib topgan ikki uslubiy sistema, ikki tarixiy adabiy, ikki individlar: yozuvchi muallif va tarjimonning qiyos qilinishi, yoxud to'qnashuvini taqozo etuvchi ijod jarayonidir".

Asl nusxa va tarjima o'rtasidagi asosiy tafovutlar avvalo ikki til o'rtasidagi farqlarda namoyon bo'ladi, ba'zi so'zlar bir tilda boshqa ma'no, ikkinchi tilda boshqa ma'no anglatishi mumkin. Bir tilda ijobiy mazmunda qo'llaniladigan so'z, boshqa tilda salbiy ma'no bildirishi mumkin, deb bu tafovutlarni ming yil burun Abu Rayhon Beruniy ham ko'rsatib ketgan edi. Chunonchi tarjimashunos Zuhridin Isomiddinovning yozishicha, "jo'ra" so'zi o'zbeklarda erkaklarga nisbatan qo'llansa, turkmanchada u "dugona" ma'nosida keladi. "Jamiyat" so'zi o'zbek tilida "jamo'a, umumiylik" ma'nolarini bildirsa, arab tilida "universitet" ma'nosini bildiradi. Yoki "olchoq" so'zi o'zbeklarda "muttahaq, pastkash, ablah kimsa" ni bildirsa, turkmanchada "xush fe'l, ko'ngli ochiq kishi" ma'nosini anglatadi. Qirg'izchada esa "qatiq"ni "ayron" deyishadi. Yoki "maktab" so'zi o'zbek tilida "o'quv dargohi" ma'nosini anglatga, arab tilida "parta" ma'nosini anglatadi. "Fuqaro" so'zi o'zbek tilida "aholi" ma'nosini ifodalasa, arab tilida bu so'z "kambag'allar" degan ma'noni ifodalaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, bir tildagi so'z, ikkinchi tilga tarjima qilinganda salbiy ma'noni ifodalashi ham mumkin ekan. Bu tarjima jarayonidagi lisoniy muammolar hisoblanadi.

Tarjimaning tildan tashqari, til bilishga bevosita bog'liq bo'lmagan muammolari-tarjimaning g'ayrilisoniy (ekstralingvistik) muammolari hisoblanadi. Tarjimaning lisoniy (lingvistik) muammosi faqat ikki til bilish bilan chegaralansa, g'ayrilisoniy muammolar nihoyatda ko'p. Bu ikki adabiyot, ikki madaniyat, ikki tarix, ikki xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, diniy e'tiqodlari va marosimlaridir. Bundan tashqari ilmiy tarjimada turli ilmlardan, publisistik tarjimada dunyoda kechayotgan voqealar, badiiy tarjimada adabiy estetik qonuniyatlardan xabardor bo'lishi taqozo qilinadi. Sof ilmiy asarlar va rasmiy xabarlar rasmiy uslubdagi hujjatlarni nazardan soqit qilganda, aksiyat

matnlar turli darajadagi uslubiy bo'yoqqa ega bo'ladi. Ularda his-hayajon, kinoyapiching, turli so'z o'yinlari, nozik ishoralar aks etadi².

Bir tilda ko'p ma'noli bo'lgan so'z, boshqa tilda faqat bir ma'noni bildirishi mumkin. Yoki aksincha, bir tilda bir ma'noli so'z boshqa tilda ko'p ma'noni ifodalashi mumkin. Bu tarjimada ma'noning torayishi yoki kengashiga olib keladi. Sinonimlar, ma'nodosh so'zlar ham har bir tilning boyligidir. Masalan: "Boburnoma"da "o'ldi" degan so'z 27 xil usulda ifodalangan ekan. "O'ldi, vafot etdi, dunyodan o'tdi, shunqor bo'ldi, shahodat sharobatni ichdi, juvonmarg bo'ldi, boqiy dunyoga rahmat qildi, bu dunyoning foniyini tark etdi, jonini fido qildi, jon qushi jon qafasini tark etdi, ajal sharbatini ichdi, jonini jabborga berdi" va hokazo...

Ushbu so'zning dunyodagi boshqa biror bir tilida bunchalik ko'p ma'nodoshlari, shakldoshlari bo'lmasa kerak.

"Boburnoma"ning ellikdan ortiq sahifasida "g'arib" so'zi kelib, turli tuman ifodalagan. Ingliz tarjimonlari asar tarjimasida "g'arib" ma'nosidagi 35ta so'z va iboralardan foydalanganlar. Xalq o'rtasida "O'zbeklarning to'g'ri gapi yo'q" degan bir hikmat yuradi. Buning ma'nosi ko'pgina o'zbekcha so'zlar ko'p ma'noli bo'lib ularni har tarafga bursa, turlicha talqin qilsa bo'ladi. Xo'sh, sinonimlarga boy bo'lmagan bir tilga, o'zbekcha ko'p ma'noli so'zlarni tarjima qilsa matnning butun ma'no qirralari aks etadimi? Har qanday tilning ham umumiy va xususiy jihatlari mavjud. Bu har bir tilning o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqadi.

Tarjimaning muhim muammolaridan biri bu- turli tillardagi freziologizmlar (matal, maqol, idioma) tarjimasidir. K. Chukovskiy "Iloji boricha maqollarni so'zma-so'z tarjima qilishga intilish kerak"ligini aytadi. Chunki ularda xalqning tug'ma xususiyati, fikrlashi, milliy uslubi o'z ifodasini topgan bo'ladi. Biroq deb yozadi G'.Salomov "Boshqa tillarda shunday maqol va metallar ham borki, ulardan kelib chiqadigan hikmat hijjalab qilinadigan tarjima ichida so'zlarda o'zini ma'nosini topib bo'lmaydi. Ana shunday maqol va materiallar juda ko'pdir. Shunday qilib, boshqa tillardagi ko'plab maqol va matallar aks etgan hikmatlarni ularning ona tilimizdagi muqobillari bilan almashtirish vositasidagina ro'yobga chiqarish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, muayyan so'z tarjimasini uning kontekstdagi tahlilidan boshlanadi. Bu tarjimada tegishli va muqobil so'zni tanlash imkonini beradi. Turli kontekstlar manba til, ya'ni asliyatdagi qo'llangan so'z ma'nosini ochishda qo'l kelishi mumkin. So'z tanlashda muammo, asosan, tarjima tilida asliyatda qo'llangan so'zga qisman muqobil bo'ladigan so'zni to'g'ri topish va uni kerakli o'rinlarda qo'llay olishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari/ O'quv qo'llanma, S.X.Muhammedova, M.D.Abdullayeva, Sh.Sh.Yuldasheva, Y.B.Eshmatova, -T.: "Excellent Polygraphy", 2020.

2. M.T.Irisqulov. "Tilshunoslikka kirish". "Yangi asr avlodi", 2009-yil.

² N.Uluqov. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma. -T.: "Barkamol fayz mediya", 2016.

3. N.Uluqov. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma. -T,: "Barkamol fayz mediya", 2016.

4. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma/ I.G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. -Toshkent,: Tafakkur-Bo'stoni, 2012.